

## O'QUV FAOLIYATI MOTIVLARI OLIMLAR TALQINIDA

Nasimov Doston Sobir o'g'li, JDPI, magistr

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta'lim sifatiga erishishda motivlarning o'rni, o'quv–biluv motivlari va ularning ta'limni o'zlashtirishdagi o'rni, motivlar ta'limda samaradorlikka erishishning zarur sharti ekanligini olimlar tomonidan o'rganilishi masalasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, o'quv–biluv motivlari, ta'lim, dars, o'zlashtirish, o'quv faolligi, xulq, qiziqishlar, motivasiya, faoliyat, kasb, o'qish, maktab, o'quvchi, tadqiqot.

Ta'lim tizimini takomillashtirish, uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'lim jarayonida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Respublikamizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan qonun va farmoyishlar ana shu faktorlarni o'zida mujassam etganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bunda umumiy ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish asosiy mazmunni tashkil etadi.

O'quvchilar jamoasini o'rganib chiqish, ularning qiziqishlari, intilish va xohishlarini, istaklarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etish yoki o'quvchilarning o'quv–biluv faoliyatini maqsadli yo'naltirish bilan o'quv materiallarini o'zlashtirishning ta'minlanishini bugungi kun maktab amaliyoti ko'rsatmoqda. Ma'lumki, darslarni tashkil etish va dars davomida o'quvchilarning faolligini ta'minlash uchun avvalo o'quvchilardagi o'quv–biluv motivlarini inobatga olish yoki ularning fanga bo'lgan motivlarini shakllantirish zarur. Bunga asosiy sabab o'quvchilardagi o'quv – biluv motivlari, umuman, motivlar faoliyatning tayanch asosini tashkil etishidadir.

Motivlar – didaktik jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi.

Motiv va uning nazariy mazmun va mohiyati yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda motivga turli ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha:

Motiv – 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Motiv – insonni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi. Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo'qqa chiqaradi.

Motiv – bu ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyillik.

Motivlar ta'limda samaradorlikka erishishning zarur shartidir. Psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan

kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat T. Olport asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqining o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

O'quv faoliyati motivlari deganda o'quv faolligi namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi. G.Rozenfeld o'qish motivatsiyasining quyidagi omillarini ajratgan.

1. Ta'lim olish uchun o'qish, faoliyatdan qoniqmaslik yoki o'rganilayotgan fanga qiziqmaslik.

2. Ma'lum qiziqishlarsiz o'qish.

3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o'qish.

4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o'qish.

5. Majburlab yoki qo'rqanidan o'qish.

6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o'qish.

7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish.

8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim.

E. Torndayk o'quv jarayonini u yoki bu qo'zg'atuvchiga (stimulga) javob reaksiyasining holati bilan bog'liqligini, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasidagi ma'lum aloqani o'rnatish bilan izohlanishini aytib o'tadi.

Torndayk kishi o'zi xohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ro'yxushlikning hamda o'zi xohlagan reaksiyaga nisbatan bo'lgan moyillikning ta'sirini o'rganishga harakat qiladi. U bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag'batlantirish omillaridan ancha samarasiz va kuchsizdir, degan xulosaga keladi. Keyingi tadqiqotlarida esa, rag'batlantirish, umuman, jalb etish barcha aloqalarni saqlash va kuchaytirish salohiyatiga, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalarni muayyandan noaniqlikka o'zgartirish xususiyatiga egaligini ta'kidlab o'tadi. Torndayk bolaning ijobiy o'quv motivatsiyasini uni jazolash orqali hosil qilib bo'lmasligini, bunday chora-tadbirlar bolada faqatgina salbiy motivatsiyani vujudga keltirishini e'tirof etgan. O'z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Torndayk real inson turli rejadagi o'z ehtiyojlari hamda talablari orqali amalga oshiradigan, uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblangan o'quv faoliyatiga aloqador bo'lgan umumiy ko'rinishdagi xulosalarga keladi va bu xulosalar, motivlashtirish nuqtai nazaridan qaralganda, mustahkamlashning alohida bitta tizimiga sig'maydi.

J. Bruner o'qish motivlari masalasiga Torndaykdan boshqacharoq yondashadi. U o'zining "O'quv jarayoni" nomli kitobida o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarini e'tirof etgan.

J. Bruner faqat o'qishni motivatsiyalash, ya'ni har doim ham o'qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqidagina emas, shu bilan birga, o'quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo'lsa ham, ulardagi ayrim yo'nalishlar diqqatga sazovordir. Bu,

birinchi navbatda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo'yilishidir. Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu ichki qanoat hissi keyinchalik bilim olishga yo'naltirilgan ijobiy motivatsiya bilan uyg'unlashib ketadi.

E. Deki ichki motivlarni tug'ma, inson tug'ilishiga xos bo'lgan motivlar deb ta'riflaydi. Uning fikricha, hamma insonlar o'zini-o'zi baholashga nisbatan differensiallashmagan zaruriyat bilan tug'iladilar.

O'quvchi imkoniyatlarini aniqlash va ularni yuzaga chiqarishdagi samaradorlik o'qituvchining ustaligiga, uning vaqtida yordamga kelishi, o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish mahoratiga bog'liq.

D.N.Uznadze boshlang'ich ta'limning bosh vazifasi bolaning ichki kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishi uchun sharoit yaratib berishdan iborat, deb hisoblaydi. Tahsildagi asosiy narsa ta'lim berilayotgan predmetdan ko'ra ko'proq ushbu jarayonda faollashadigan kuchlarning rivojlanishiga bog'liq.

Motivlar ehtiyojga undaydigan *stimulga* asosan tashqi va ichki motivlarga ajratiladi. Shaxsning axloqiyligi, yo'nalganligiga bog'liq ravishda: shaxsiy va jamoa motivlari, g'oyaviy va axloqiy motivlarni ajratish mumkin. Shunday qilib, ko'p hollarda motivlar faoliyatga undovchi kuch sifatida baholanadi.

Motivlarni tasniflashda keng tarqalgan yo'nalish bu - *vaqtni hisobga olishdir*. Unga ko'ra: vaziyatli va doimiy namoyon bo'luvchi motivlarni, qisqa muddatli va barqaror motivlarni ajratish mumkin.

Motivning *tuzilishiga ko'ra*: dastlabki – mavhum maqsad mavjud motivlar, ikkinchi – aniq maqsad mavjud motivlarga ajratilgan.

I.A.Vasilev va M.Sh.Magomed-Eminovning kitobida: umumlashtirilgan barqaror motivlar (muvafaqqiyatsizlikdan qochish va muvafaqqiyatga intilish motivlari), aniq barqaror motivlar (aniq kasbiy faoliyatdagi faollik), umumiy beqaror motivlar va aniq beqaror motivlarga (aniq qisqa muddatli maqsadlari mavjud) ajratilgan.

Respublikamizda hozirgi kunda o'qish faoliyatidagi motivlar muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borilmoqda. Masalan M.G.Davletshin, E. G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullaev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar ta'lim jarayonida o'qish motivlarini o'rganishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

E. G'oziev o'z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilish jarayonining qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai ekanligini aytib o'tadi.

Olim o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy, emperik tomonlarini yoritib berdi.<sup>38</sup>

V.Karimova motiv motivatsiyaga nisbatan aniqroq, torroq tushuncha hisoblanib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

V.A.Tokarevaning tadqiqotlarida o'quvchilar o'quv faoliyati motivlarini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Uning fikricha, o'qish motivlari o'zgarishi uchun

yasama vaziyat va sharoitlar zarur emas, bularning barchasi kundalik hayotda va ta'lim jarayonida shakllanadi.

A.A.Fayzullaev motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Bu bosqichlar quyidagilar: 1- qo'zg'alishning anglanishi; 2 – motivning qabul qilinishi; 3 – motivning hayotga tatbiq qilinishi; 4 – motivning mustahkamlanishi; 5 - qo'zg'alishning faollashuvi.

*Birinchi bosqich* qo'zg'alishning paydo bo'lishi va anglanishi. Qo'zg'alishning to'liq anglanishi qo'zg'atishni qanday predmet chaqirganligini anglash bilan hamda mazkur harakatni amalga oshirish usullari va natijasini tushunib yetish bilan belgilanadi.

*Ikkinchi bosqich* motivning qabul qilinishi. Muallif buni qo'zg'alishning ichki jihatdan qabul qilinishi bilan tushuntiradi. Bu bosqichda odam o'zining axloqiy prinsiplari, qadriyatlari va boshqalarni tahlil qilib ko'rib, paydo bo'lgan ehtiyoj, mayl va uning hayoti uchun naqadar muhimligi, ularni qondirish kerakmi - yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

*Uchinchi bosqich* bu motivning amalga oshirilish bosqichi bo'lib, bu jarayon davomida konkret vaziyatlarga va motivning bajarilishiga bog'liq holda motivning psixologik mazmuni o'zgarishi mumkin.

*To'rtinchi bosqich* motivning mustahkamlanishi hisoblanib, bu bosqich natijasida motiv xarakter belgisiga aylanadi.

*So'nggi bosqich* potensial qo'zg'alishning faollashuvi bo'lib, bu holatda xarakterning ma'lum belgisi anglangan va anglanmagan holda yuzaga chiqadi. E.Z.Usmonova o'zining tadqiqot ishlarida ikki asosiy motivatsiya toifasini ko'rsatib o'tgan: muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi tashqi motivatsiyaga, bilish motivatsiyasini esa ichki motivatsiyaga mansub, deydi.

Biz tadqiqotimizda maktab o'quvchilarida yetakchi hisoblanmish o'qish faoliyati motivlarini o'rganishga harakat qildik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'quv motivlari ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Demak, har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya'ni shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo'ladi va aynan ularning tabiat va zaruriyatiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Э.Торндайк. Процесс учения у человека / Пер. С англ. – М.: Изд-во иностр. Лит-ры, 1931. – 317 с.
2. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. –T.: 2010-yil. 275-276-betlar.
3. Е.Л. Деси и др. Мотивация и образования. 1991 г. 325-326 с.
4. Д.Н.Узнадзе. Психологические проблемы мотивации поведения. Тбилиси.: Наука. 1968 год. 212 с.
5. Э. Ғозиев. Ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини бошқариш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988, 104 б.
6. Malikaxon Qodirova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), Журнал Педагогика и

психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

7. Malikaxon Qodirova, МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАҚЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

8. Malikaxon Qodirova, O'SMIRLAR PSIXOLOGIIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

9. Malikaxon Qodirova, AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

10. Malikaxon Qodirova, ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

11. Malikaxon Qodirova, ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

12. Jumanova, N. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОБУЖДЕНИЯ БОЛЬШОЙ ГРУППЫ ДЕТЕЙ ЛЮБОВЬ К ЛИТЕРАТУРЕ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>

13. Jumanova, N. (2021). ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕФЕКТОВ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>

14. Nasiba Jumanova, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ АКТИВАЦИИ, УСКОРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

15. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.

16. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

17. Dulfuza Qarshiboyeva, КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

18. Dulfuza Qarshiboyeva, IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

19. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>
20. Toshpo'latova, N. (2021). СНЕТ ТИЛИ ФАНЛАРИНИ О'ҚИТИШДА О'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3073>
21. Nodira Toshpo'latova, [ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ - УЧИТЫВАТЬ ПСИХИКУ УЧАЩИХСЯ](#), *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
22. Nodira Toshpo'latova, [ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАҲБАРИНИНГ МУЛОҚОТИ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА](#), *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari*
18. Ахмедова Насиба Ачиловна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ. <https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>
19. Ж.Мажидов. ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>
20. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>
21. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>
22. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
23. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
24. Ж.Мажидов. ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>
25. Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗARO МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>

26. Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
27. Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
28. Majidov, J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1981-1988.
29. Majidov, J. (2021). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074>
30. Jasur Majidov, [СВОЕОБРАЗНОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В СИСТЕМЕ “ТРЕНЕР-СПОРТСМЕН” В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КЛУБАХ](#), *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education*
31. Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
32. Жуманова, Н. Ш. Развитие инновационных систем в образовании / Н. Ш. Жуманова, Н. Х. Тошпулатова, А. С. Комилова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 4 (108). — С. 777-778. — URL: <https://moluch.ru/archive/108/25968/> (дата обращения: 04.02.2022).